

**TERMINAL DAVRDAGI BEMORLARNI PARVARISH QILISHNING
TIBBIY-PSIXOLOGIK VA AXLOQIY ASOSLARI**

Ravikova Matluba Qozoqjon qizi

Baliqchi Abu Ali Ibin Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Maxsus fanlar kafedrası

O'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminal bosqichdagi bemorlarni parvarish qilish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Terminal holat – bu bemorning hayotini saqlab qolish deyarli imkonsiz bo'lgan kasallik bosqichidir. Bu bosqichda bemorga og'riqni yengillashtirish, psixologik-ruhiy yordam ko'rsatish va axloqiy qo'llab-quvvatlash asosiy maqsadga aylanadi. Maqolada palliativ yordamning mohiyati, tibbiy va ijtimoiy xizmatlarning o'zaro aloqasi, shuningdek hamshiralik xizmatlarining o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Terminal bosqich, palliativ yordam, bemor parvarishi, ruhiy qo'llab-quvvatlash, axloqiy tamoyillar, og'riqni kamaytirish, hamshiralik yordami, umr sifati.

Tibbiyot fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bu — terminal bosqichdagi bemorlarni to'g'ri parvarish qilish masalasidir. Bu bosqichda kasallik shu darajaga yetadiki, tibbiy aralashuvlar bemorni sog'lomlashtirishga emas, balki uning hayot sifatini yaxshilashga, og'riqlarini yengillashtirishga yo'naltiriladi. Terminal bosqich ko'pincha onkologik kasalliklar, yurak yetishmovchiligi, surunkali o'pka yoki buyrak kasalliklari, asab tizimi buzilishlari kabi og'ir holatlarda kuzatiladi. Bunday bemorlar uchun parvarish bu nafaqat tibbiy, balki psixologik, axloqiy va ijtimoiy yordamni ham o'z ichiga oladi.

Shuningdek, “terminal” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, hayot va o'lim orasidagi holat degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, terminal bosqich bu — bemorning holati tibbiyotda to'liq tiklab bo'lmaydigan, organizm faoliyatining



sekin-asta izdan chiqish davridir. Bu davrda bemor jismoniy zaiflashadi, ogʻriqlardan aziyat chekadi, ruhiy jihatdan tushkunlikka tushadi. Aynan shu bosqichda unga nisbatan samimiy va shafqatli yondashuv katta ahamiyatga ega boʻladi.

Palliativ yordam — bu bemorning hayot sifatini oshirishga qaratilgan kompleks yordam turi boʻlib, quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- Ogʻriq va noqulayliklarni kamaytirish;
- Psixologik va ruhiy yordam koʻrsatish;
- Oila aʼzolariga maslahat va emotsional tayyorgarlik.

Terminal bosqichda bemorni eʼtiborsiz qoldirish yoki u bilan sovuq munosabatda boʻlish mutlaqo notoʻgʻridir. Parvarishda quyidagi axloqiy tamoyillarga amal qilinishi kerak:

Hurmat va eʼtibor: Har qanday holatda bemorga insoniy munosabatda boʻlish;

Sir saqlash: Bemor va uning yaqinlari haqida maʼlumotlarni maxfiy saqlash.

Bemorning oila aʼzolari koʻpincha psixologik jihatdan ogʻir holatda boʻladi. Shuning uchun ularga yordam berish, maslahat berish, sabr-toqat va ruhiy tayyorgarlik masalalarida koʻmaklashish zarur. Tibbiy xodimlar oila bilan hamkorlikda ishlaganida bemorning holati biroz engillashadi.

Soʻnggi yillarda aholining qarib borishi, surunkali kasalliklar – xususan, yurak-qon tomir tizimi, saraton, diabet va nevrologik buzilishlarning koʻpayishi natijasida terminal bosqichdagi bemorlar soni oshib bormoqda. Bu esa, palliativ yordam xizmatlarini yanada rivojlantirish va kengaytirishni talab qilmoqda.

Onkologik kasalliklar. Eng keng tarqalgan terminal holatlardan biri — saraton kasalligining 4-bosqichi. Bu bosqichda oʻsmalar boshqa aʼzolarga metastaz qilgan boʻladi va kasallikni jarrohlik, kimyoterapiya yoki radiatsion usullar bilan toʻliq davolash imkoni qolmaydi.

Eng koʻp uchraydigan misollar: Oʻpka saratoni, jigar saratoni, miya oʻsmalari, suyak metastazlari. Asosiy alomatlar esa quyidagilardan iborat:



- Surunkali og‘riq (odatda kuchli og‘riq qoldiruvchi vositalar — opioidlar bilan nazorat qilinadi)

- Nafas yetishmovchiligi, ayniqsa o‘pka va plevral effuziyalarda
- Hazm tizimi buzilishlari: ko‘ngil aynishi, ishtahaning yo‘qolishi, qusish
- Umumiy holsizlik, charchoq va kaxeksiya (tana vaznining keskin kamayishi)

Yurak yetishmovchiligining terminal bosqichi — yurak mushagining progressiv zaiflashuvi bilan xarakterlanadi. Belgilari haqida so‘z ketganda, quydagilarni aytishimiz mumkin:

- O‘pkaning dimlanishi va nafas olish qiyinlashuvi
- Oyoqlarda shish, asabiylashish, uyquning buzilishi
- Tana harakatlarining kamayishi va doimiy charchoq

Bundan tashqari, nevrologik kasalliklar. Parkinson, Altsgeymer va amiotrofik lateral skleroz (ALS) kabi kasalliklar o‘zining so‘nggi bosqichida bemor mustaqil hayot kechira olmaydigan, hatto oddiy ehtiyojlarini bajara olmaydigan holatga olib keladi.

Hamshira tomonidan amalga oshiriladigan parvarish faqat jismoniy yordam bilan cheklanmay, balki bemorning hayot sifatini oshirish, simptomlarni kamaytirish, psixologik barqarorlikni saqlash va insoniy qadr-qimmatni hurmat qilishga ham qaratiladi.

Og‘riq sindromini boshqarish. Terminal bosqichdagi bemorlarda eng ko‘p uchraydigan va hayot sifatini keskin pasaytiradigan simptomlardan biri bu og‘riq sindromidir. Og‘riqni samarali boshqarish bemorning nafaqat jismoniy, balki ruhiy holatini ham ijobiy yo‘nalishda o‘zgartiradi. Og‘riqni yengillashtirish uchun turli usullar kompleks tarzda qo‘llaniladi.

Farmakologik yondashuvlar: Opioid analgetiklar (morfiy, fentanil, oksikodon) — kuchli og‘riqlarni nazorat qilishda qo‘llaniladi, no-opioid analgetiklar (paratsetamol, NSAIDlar) — yengil yoki o‘rtacha darajadagi og‘riqlar uchun, steroid preparatlar — yallig‘lanishni kamaytirish va og‘riqni yengillashtirishda



yordam beradi va inksiolitiklar (diazepam, lorazepam) — og‘riq bilan bog‘liq xavotir va ruhiy bosimni pasaytiradi.

Terminal bosqichda bemorning ruhiy holati keskin o‘zgaruvchan bo‘lib, ko‘pincha xavotir, tushkunlik, yolg‘izlik, o‘lim qo‘rquvi kabi holatlar bilan namoyon bo‘ladi. Hamshira va tibbiy jamoaning vazifasi — nafaqat davo jarayonini qo‘llab-quvvatlash, balki bemor va uning yaqinlariga ruhiy madad ko‘rsatish, ijobiy munosabatni saqlash va ruhiy barqarorlikni ta‘minlashdan iboratdir. Shuningdek, terminal davrdagi bemorlar ko‘pincha o‘z yaqinlari bilan vaqt o‘tkazish, tugallanmagan ishlarini yakunlash, kechirim so‘rash yoki berish kabi ehtiyojlarni bildiradilar. Bu jarayonda hamshiralarning insonparvarlikka asoslangan yondashuvi va ixtisoslashgan ruhshunoslar bilan hamkorligi bemor uchun muhim tayanch bo‘ladi.¹

Xulosa qilib aytganda, terminal bosqichdagi bemorlarni parvarish qilish — bu faqat dori vositalarini berish emas, balki insonparvarlik, sabr, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, axloqiy yondashuv va doimiy g‘amxo‘rlikdan iborat murakkab jarayondir. Tibbiy xizmat xodimlarining bemor bilan qanday munosabatda bo‘lishi uning hayotining qolgan qismini oromli va izzatli o‘tkazishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislar chinakam insoniylik, sabr-toqat va professionallik bilan ish yuritishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Normatova, M. S. (2022). Palliativ yordamning zamonaviy tamoyillari. O‘zbekiston tibbiyoti jurnali, 4(2), 32–36.
2. Raximova, Z. A. (2023). Terminal bosqichdagi bemorlar bilan ishlashda psixologik yondashuv. Tibbiyot va jamiyat, 1(1), 28–33.
3. Qurbonova, D. M. (2021). Og‘ir kasalliklar bilan og‘rigan bemorlar bilan kommunikatsiya uslublari. Hamshiralik amaliyoti, 2(4), 45–50.

¹ Qurbonova, D. M. (2021). Og‘ir kasalliklar bilan og‘rigan bemorlar bilan kommunikatsiya uslublari. Hamshiralik amaliyoti, 2(4), 45–50.